XALQ DEPUTATLARI OQDARYO TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-23-157-7-92-K/25 Oqdaryo tumani

Oqdaryotumanida 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga va noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 99-moddasi hamda tuman Soliq inspeksiyasining 2025-yil 2-dekabridagi 20-184058-sonli xati hamda Oqdaryo tumanida 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga va noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdorini belgilash to‘g‘risida tuman Soliq inspeksiyasining 2025-yil 12-dekabrdagi 82-sonli bildirish xati va takliflariga muvofiq “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Oqdaryo tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, yigirma uchinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 99-moddasi hamda tuman Soliq inspeksiyasining 2025-yil 2-dekabridagi 20-184058-sonli xati hamda Oqdaryo tumanida 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga va noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdorini belgilash to‘g‘risida tuman Soliq inspeksiyasining 2025-yil 12-dekabrdagi 82-sonli bildirish xati rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Soliq inspeksiyasi hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda tuman hokimligining 2026-yil uchun belgilangan mahalliy byudjet

prognozidan kelib chiqib, tuman bo‘yicha 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yer solig‘i stavkalarining Mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsientlarni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar 1-ilovaga;

hamda Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (E.Ashurov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (N.Ismoilov), tuman Soliq inspeksiyasi (M.Ruzimamatov) bilan birgalikda mazkur qaror o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirilsin.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Oqdaryo tumani Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Rabbanaqulov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (E.Ashurov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi:Qudratov Sherzod Asadovich

QUDRATOV SHERZOD ASATOVICH

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-157-7-92-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar
(qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

ming so‘mda

T/r	Tuman nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Oqdaryo tumani	1,10	1,10	1,10	1,10	1,30	1,10	1,10	1,10

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-157-7-92-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalariga 2026- yil uchun qo'llaniladigan koeffitsientlar

ming so'mda

T/r	Tuman nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig'anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G'isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag'al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Oqdaryo tumani	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00	1,20	1,30